

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“FUNDAMENTAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 330.35:338

**XOMIDOVA KAMOLA G‘OLIB QIZI**

**IQTISODIY O‘SISH SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHDA TABIIY,  
MODDIY VA MOLIYAVIY RESURLARDAN UNUMLI FOYDALANISH  
MASALALARI**

70310101-“ Iqtisodiy nazariya”

Mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**Dots. A. N. Erkayev**

**Toshkent-2023**

Magistrlik dissertasiya ishi “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan. 7 sonli bayonnoma «26» aprel 2023 y.

Ilmiy rahbar: Эркаев А.Н



imzo

sana

Magistrant: Xomidova H



imzo

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “23” 05

№ 7107 raqami bilan ro‘yxatga olingan

### “Ximoyaga tavsiya etiladi”

“Fundamental iqtisodiyot” kafedراسi mudiri,

dots. B. Mamaraximov MARXIMOV

“23” may 2023-yil

Himoya 2023-yil “24” may soat 10:00 da

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tdi

## ANNOTASIYA

Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlash choralarini ko'rish bugungi kunda davlat iqtisodiyotining dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz iqtisodiy o'sishining statistik ma'lumotlari asosida ekonometrika tahlil usullari yordamida o'rgandik. Undan tashqari horijiy mamlakatlarni bu sohadagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalalari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

***Kalit so'zlar:*** *Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy ko'rsatkich, tabiiy va moliyaviy resurslar, "Yashil iqtisodiyot", ishchi kuchi, mehnat unumdorligi, intensiv ko'rsatkich, investisiya.*

## *Summary*

Measures to ensure the efficiency of economic growth vision is one of the current topics of state economy today. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic. Among other things, we have prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles and local normative documents on the topic. In order to increase the practical importance of the scientific work, we studied the economic growth of our country using the methods of econometric analysis based on statistical data. In addition, we got acquainted with the experience of foreign countries in this field. Based on the studied and analyzed information, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on the issues of efficient use of natural, material and financial resources.

*Key words:* Economic growth, economic indicator, natural and financial resources, "Green economy", labor force, labor productivity, intensive indicator, investment.



## MUNDARIJA

|  |           |
|--|-----------|
| Annotasiya .....   | 3         |
| Mundarija .....  | 5         |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....                                 | 7         |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati .....                                   | 8         |
| Keltirilgan qisqartmalar .....                                       | 9         |
| <b>I BOB. KIRISH .....</b>   | <b>10</b> |
| 1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi ..... | 13        |
| 1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari .....                            | 13        |
| 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....               | 14        |
| 1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti .....                             | 15        |
| 1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati ..... | 16        |
| 1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi .....                 | 16        |
| <b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI .....</b>                              | <b>18</b> |
| 2.1. Kirish .....  | 18        |
| 2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi .....                | 18        |
| 2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....    | 24        |
| 2.4. Xulosa .....  | 25        |
| <b>III BOB. METODOLOGIYA .....</b>                                   | <b>26</b> |
| 3.1. Tadqiqot dizayni .....  | 26        |
| 3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....                           | 26        |
| 3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....                      | 26        |

|   |  |           |
|---|--|-----------|
| 3.4   | Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar .....  | 29        |
| 3.5   | Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi .....   | 29        |
| 3.6   | Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar .....   | 29        |
| <b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR .....</b>        |  | <b>31</b> |
| 4.1.  | O'zbekistonda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash omillari va natijalari.....  | 31        |
| 4.2.  | O'zbekistonda iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanish holati, islohotlari va tahlili..... | 37        |
| 4.3.  | O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga jalb etilgan investisiyalarning ahamiyati.....  | 44        |
| 4.4.  | O'zbekistonda «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'llari va istiqbollari.....                     | 51        |
| 4.5.  | Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....  | 60        |
| <b>V BOB. XULOSA .....</b>                      |  | <b>63</b> |
| 5.1.  | Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi .....  | 63        |
| 5.2.  | Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....  | 64        |
| 5.3.  | Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....  | 65        |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b> |  | <b>67</b> |



## I BOB. KIRISH

Iqtisodiy o'sish jamiyatning rivojlanish istiqbollarini prognozlash imkonini beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish resurslarning cheklanganligi muammosini hal etish uchun sharoit yaratadi. Ushbu fan asosida magistr'larga iqtisodiy o'sish, uning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari, modellari, mexanizmlari va ularning amal qilish qonuniyatlari, davlatning iqtisodiy o'sish va rivojlanish siyosati hamda uning asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy o'sish to'g'risidagi turli xil qarashlar, ularning asoslari va manbalarini, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat hamda nodavlat sektorining ahamiyatini o'rgatadi. Shuning uchun fanning eng dolzarb vazifalaridan bo'lib o'tkazilayotgan tahlillarga asoslanib magistr'larga empirik usullarni baholay olishni; iqtisodiy o'sishga taalluqli bo'lgan eng samarali adabiyotlarni ajratib olishni; nazariy modellarini tahlil qila olish va asosiy mexanizmlarni tushunishni; iqtisodiy o'sish mavzusiga tegishli ma'lumotlarni yig'ishni va o'tkazilayotgan tahlillarda o'zlarining empirik bilimlarini qo'llay olishni; o'z fikrini bildirish va ularni himoyalay olishni; iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qila olishni o'rgatadi. Biroq, mavjud salohiyat, uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qo'llanilishiga qaramay, O'zbekistonning potensial va real imkoniyatlarini baholash imkonini beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sish va uning oqibatlarini idrok etishni ta'minlovchi sifat jihatidan yangi mexanizmni yaratish talab etiladi. Bundan kelib chiqib, iqtisodiy o'sish sifatini oshirish, uning muvozanati muammolari tahlili amalda adekvat yechimini topmaydi, shuningdek uning o'sish paradigmatlari mazkur muammo bo'yicha o'quv qo'llanma yozishga undaydi. "Iqtisodiy o'sish" fani bo'yicha o'zbek tilida tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma, ilk adabiyotlardan hisoblanib, magistr'larga iqtisodiy o'sish, uning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari, modellari, mexanizmlari va ularning amal qilish qonuniyatlari, davlatning iqtisodiy o'sish va rivojlanish siyosati hamda uning asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy o'sish to'g'risidagi turli xil qarashlar, ularning asoslari va manbalarini, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat hamda nodavlat sektorining ahamiyatini o'rgatadi. Shu sababli, muallif o'quv qo'llanmani